

JAHON VA FRANSUZ ADABIYOTSHUNOSLIGIDAGI MASAL JANRI TADQIQI

¹Nosirova Dilduza Mustafoyevna²Salimova Nozima Sherali qizi¹BuxDUPI Xorijiy tillar kafedrası katta o'qıtuvchısı²BuxDUPI Tabiiy va gumanitar fanlar fakulteti I- bosqich talabası<https://doi.org/10.5281/zenodo.6509616>

ANNOTATSIYA: Bugungi kunda butun dunyoda barcha sohalar kabi adabiyothunoslik ilmi ham jadal sur'atlar bilan rivojlanmogda. Ayniqsa, og'zaki nutqni rivojlantirishga hamda ular bilan milliy tilimiz xususiyatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqish kun sayin ortmoqda. Tobora rivojlanayotgan O'zbekistonning kelajakda yanada taraqqiy etishi va yuksalishida, mustahkamlanib borishida o'z ona tilimizni atroflicha mukammal o'rganishning ahamiyati beqiyosdir. Bu hozirgi kundagi ta'lim tarbiya jarayonini yaxshilashga, keyingi yillarda o'qitishdagi muhim ko'zlangan narsa bu o'quvchilarni boshlang'ich sinfdan boshlab og'zaki nutqini o'stirishdan iborat bo'ldi. Barchamizga ayon-ki, ertak, masal, topishmoqlar til o'rgatish avval og'zaki nutqni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: masal janri, adabiyot, Fransuz, topishmoq, maqol

Buyuk xalq og'zaki ijodlari (ertak, masal, topishmoq, maqollar) bir necha asrlardan buyon foydalanib, qo'llanilib kelinmoqda. Bugungi kunda ham o'zligini yo'qotmay rivojlanib borayotgan xalq og'zaki ijodlaridan masalchilik haqida fikr yuritmoqchimiz. Barchamizga ayon-ki, ertak, masal, topishmoqlar til o'rgatish avval og'zaki nutqni rivojlantirishga xizmat qiladi. Masal - axloqiy, satirik va kesatq mazmunini kinoyaviy obrazlarda aks ettirgan aksariyat kichik she'riy, ba'zan nasriy asardir. Inson xarakteriga xos xususiyatlar masalda majoziy obrazlar - hayvonlar, jonivorlar va o'simliklar dunyosiga ko'chiriladi. Timsollarning kinoyaviy xarakterda bo'lishidan tashqari, kulgili savol-javob ham masal tili va uslubi uchun xarakterlidir. Ko'pincha masalning kirish qismida, ba'zan pirovardida qissadan hissa - ibratli xulosa chiqariladi. Buyuk masalchi Gulxaniyning barcha ijod namunalarini hammamiz, ayniqsa bolajonlar tomonidan sevib mutolaa qilinmoqda. Shuningdek jahon adabiyotiga nazar tashlasak buyuk fransuz shoiri, masalchi La

Fontaine (Lafonten)ning asarlari barcha adabiyotshunos ixlosmandlarining yuragidan joy olgan delak mubolag'a bo'lmaydi.

Lafonten (La Fontaine) Jan de (1621.8.7, Shato—Terri, Shampän — 1695.13.4, Parij) — Fransuz shoiri, masalchi. Fransiya akademiyasi a'zosi (1684 y.dan). Mashhur «Psixeya va Kupidonning muhabbati» (1669) qissasiga «Ming bir kecha» ertaklari hamda Apuley (mil. av. 2-a.) ning «Metamorfozalar» asari asos bo'lgan. Lafontenning masal janridagi asarlari ko'proq shuhrat qozongan. «She'riy ertak va hikoyalar» (1—5-itoblar, 1665—85), «Masallar» (1 — 12-kitoblar, 1668—94) to'plamlarida o'tkir hajvchi, yirik mutafakkir, adabiyotda Uyg'onish davri an'analarining davomchisi sifatida maydonga chiqdi. Uning antik davr, Yevropa hamda Sharq adabiyoti («Kalila va Dimna» va b.), shuningdek, xalq donishmandligidan ruhlanib yaratgan masallari zamonaviyligi, o'tkir hajvi, tavsiflarning yorqinligi b-n jahon satirik adabiyoti xazinasini boyitdi. O'zbek va rus masalchiligi rivojida ham Lafonten ijodining muhim o'rni bor. «Kosib va do'kondor» masali o'zbek tiliga tarjima qilingan (1984). Shunday qilib, bu shoir kelajak avlod uchun beqiyos meros qoldirib ulgurgan deb ayta olamiz. Uning masallarida mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, do'stga sadoqat kabi tuyg'ular ilgari surilgan. Adabiyot nazariyasida masalga liro-epik janrlardan biri sifatida she'riy shakldagi, majoziy xarakterdagi qisqa syujetli asar deb ta'rif beriladi. Masallarda turli hayvonlar majoziy suratda asarning qahramonlari sifatida tasvirlanadi. Masalan quyidagi „Ikki do'st va ayiq“ nomli masalga e'tibor qaratsak:

“Ikki do'st o'rmonda aylanib yurganlarida to'satdan ayiqqa duch kelib qolishibdi. Ulardan birinchisi shoshib daraxtga chiqib olibdi va ayiqning changalidan qutulib qolibdi. Ikkinchisi esa, hech narsa qo'lidan kelmasligini bilib, o'zini o'lganga solib yotib olibdi. Ayiq yerda yotgan kishining oldiga kelib, qulog'ini hidlabdi. Hatto uni turtib ham ko'ribdi. Kishini o'lgan deb o'ylab, unga tegmasdan ketib qolibdi. Ayiq ketgach, haligi kishining do'sti daraxtdan tushib kelib: — Do'stim, ayiq qulog'ingga nima deb shivirladi? — deb so'rabdi. — U menga: qiyinchilik paytida tashlab ketadigan do'st bilan sayohatga chiqishni yaxshilab o'ylab

ko'rmabsan-da, dedi, xolos, — deb javob beribdi do'sti". Qissadan hissa: masalda do'stlik qiyinchilikda sinaladi.

Masal kichik hajmli, ammo boy mazmunli, tugun, kulminatsion nuqta va yechimi bo'lgan kichik p̄esani eslatadi. U biror voqea-hodisani qisqa, mazmunli tasvirlashda ajoyib namuna bo'la oladi. «Antik adabiyotda Ezop (miloddan avvalgi 6-asr) — yunon masalchisining masallari juda mashhur bo'lgan. O'z ma'nosidan ko'chirilgan (majoziy) so'z va kinoyaviy iboralar orqali qilinadigan "yashirincha" tanqidning tili va uslubi Ezopga nisbatan berilib, "Ezop tili" deyilgan va shu ta'bir joriy qilingan». Ezop quldorlik jamiyati sharoitida hukmron doiralarning jirkanch kirdikorlarini ochiqdan-ochiq tanqid qilish ilojini topolmagach, o'zining satirik asarlarini kinoyaviy til va uslubda yozishga majbur bo'lgan. Feodal istibdodi sharoitlarida yashab ijod etgan mashhur rus masalchisi I. A. Krilov ham, atoqli o'zbek masalchisi Gulxaniy ham "ezop tili"da yozganlar. Frantsuz shoiri Lafontenning masallari ham mashhur. A. Navoiy dostonlarining bir qancha epizodlari, "Sh'er bilan Durroj", "Kabutar" singari masallari yaxshi xislatlarni tarbiyalashda katta rol o'ynaydi.

O'zbek adabiyotida Sayido Nasafiy, Maxmur, Gulxaniy kabi shoirlar ham Navoiy an'alarini davom ettirganlar, bolalarbop ko'pgina masallar yozganlar. Hayvonlar, parrandalar, hasharotlar, gullar haqidagi majoziy asarlarni bolalar qiziqib o'qiydilar. Mana shu nuqtai nazardan Sayido Nasafiyning "Bahoriyot" ("Hayvonotnoma") asari ahamiyatlidir. Nasafiyning masallari, axloqiy va tarbiyaviy masalalarga doir fikr hamda qarashlari bolalarning o'qish va tarbiyasida katta ahamiyat kasb etishi bilan birga, ularning kitobxonlik doirasini ham kengaytiradi.

Mashhur masalnavis Gulxaniyning "Toshbaqa bilan Chayon", "Maymun bilan Najjor" masallari boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshiga mos keladi. Ularda do'stlik, rostgo'ylik, qo'lidan kelmaydigan ishga urinmaslik kabi g'oyalar ilgari suriladi. Ma'lumki, tarbiya ko'proq ta'lim jarayonida berib boriladi. Bolalarga maktabga kelgan kundan boshlab, bilim olishga havas tuyg'usi shakllantiriladi. Ularda asta-sekin bilim olishga ehtiyoj paydo bo'ladi va bu orqali o'quvchilar ma'naviy ozuqa ola boshlaydilar. Bu bilan bolada kelajakka intilish, orzu-havas,



mehnatga chanqoqlik, xayru ehsonda sofdillik, ona-Vatanga mehr-muhabbat, fidoyilik, milliy g'urur, matonat, mehr-oqibat, do'stlik, ezgulik kabi yuksak hislar paydo bo'ladi.

Jumladan, masal janridagi asarlar ham boladagi qo'pollik, qo'rslik, yolg'onchilik, yalqovlik, beparvolik kabi illatlarni bartaraf etishda yordam beradi. Lekin amaldagi boshlang'ich sinf "O'qish kitobi" darsliklarida masal janriga kam o'rin berilgan. Vaholanki, bola tarbiyasida masalning o'rni beqiyosdir. Masaldagi qissadan hissa o'quvchi matndagi e'tibordan chetda qoldirgan, yuzaki o'qib o'tib ketgan, yaxshi anglashga harakat qilmagan o'rinni, bo'shliqni to'ldiradi. 3-sinf "O'qish kitobi" dan o'rin olgan "*Qaysar buzoqcha*" (O. Qo'chqorbekov) masali oilasi, o'rtoqlari, do'stlaridan ajralib, yomon yo'llarga kirib qolgan, oqibatda ko'ngilsiz holatlarga tushib qolgan bolalarni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Ushbu masaldagi asosiy xulosa masal oxirida berilgan qissadan hissada, ya'ni ota-bobolarimiz yaratib, bizga nasihat sifatida qoldirgan "*Bo'linganni bo'ri yer*" hikmatida o'z ifodasini topgan. Bu hozirgi kunda maqol tusini olgan. Shoir esa bundan juda ustalik bilan foydalangan.

"*Chumoli va Tipratikan*" masali esa nasriy turga mansub bo'lib, unda Chumoli timsoli orqali bolalar halollikka o'rgatiladi, har bir narsani, u katta yoki kichik bo'lishidan qat'iy nazar, so'rab olishga, egasining ruxsati bilan foydalanishga da'vat etiladi. Masalni o'qishda bolalar Tipratikan timsoliga tanqidiy nazar bilan yondashadilar, agar o'zining hayotida biron-bir shunday holat-voqea yuz bersa, uni boshqa takrorlamaslikka o'rganadilar. Masalning, avvalo, ixchamliligi, tilining qisqa va lo'ndaligi, soddaligi, o'tkirligi va xalqchilligi bola hissiyotiga qattiq ta'sir qiladi. Bular o'quvchilar nutqini o'stirishda ham muhim material hisoblanadi. Masal qahramonlarining xatti-harakatlari, fe'l-atvorlari, nutqiy o'ziga xosliklari o'quvchining diqqatini o'ziga jalb qiladi. Shuningdek, "O'qish kitobi" da "*Qaysar buzoqcha*" (O. Qo'chqorbekov), "*Chumoli va Tipratikan*", "*O'jar Toshbaqa*" (H. Yoqubov), "*Chayondan so'radilar*" kabi masallar ham o'rin olgan. Bu masallarning qahramonlari ham hayvonlar: buzoqcha, chumoli, tipratikan, toshbaqa, chayon. Majoziy qahramonlarni tanlashda ham yozuvchi har bir hayvonning xususiyatidan kelib chiqadi. Masalan, buzoqchalar arqondan bo'shatib yuborilsa, shataloq otib, uzoq-uzoqlarga ketib qoladi.



Qaysar buzoqcha ham to‘dasidan ajralib, bo‘riga duch keladi, ya‘ni ko‘ngilsiz voqea yuz beradi. Buzoqcha orqali onasidan uzoqlashib ketgan bolalar, vatanidan yiroqda turli kulfatlarga duch kelayotgan kishilar nazarda tutilgan.

Masalning allegorik mazmuniga to‘xtalmasdan, bosh qahramon qiyofasini tahlil qilishga kirishiladi. 1-sinfda bolalar masalni hayvonlar haqidagi ertakka o‘xshash kulguli asar kabi qabul qilsalar, 2-sinfdan boshlab ular masaldagi hayvonlarning xatti-harakati, o‘zaro munosabatlari ba‘zan kishilar hayotida ham uchrashini, masal axloqiy bilim beradigan hikoya ekanini, ko‘proq she‘riy tarzda bo‘lishini, unda kishilardagi ayrim kamchiliklar tasvirlanishini bilib ola boshlaydilar. *“Tovuq bilan tulki” masalida rostgo‘ylik, do‘stlik, hamjihatlik, tinchlik kabi goyalar ilgari suriladi. “Baland daraxt shoxiga qo‘nib, qag‘-qag‘lab yotgan Tovuqning tovushi butun o‘rmonga taralib, ochlikdan sillasi qurigan Tulkining e‘tiborini tortibdi. Tovuqning baland shoxda turganini ko‘rgan Tulki uni hiyla bilan pastga tushirdi.”* Masallarda yashiringan o‘tkir kinoya, voqealarning tez-tez orin almashinib turishi uni bir maromda o‘qishga xalaqit beradi. Shuning uchun ifodali o‘qishga yetarli malaka hosil qilmagan o‘quvchi avval matn bilan yaxshilab tanishib chiqishi lozim.

Masal tahlil qilinayotganda, voqea rivojini jonli tasavvur qilish, obrazlarni aniq idrok etishda o‘quvchilarga yordam berish zarur. Chunonchi, ularga ayrim epizodlarni so‘z bilan tasvirlash, ba‘zilariga o‘qituvchi yordamida tavsif berish, ishning oxirgi bosqichida rollarga bo‘lib o‘qish kabilarni tavsiya qilish maqsadga muvofiq. Qahramonlarga tavsif berishda uning xatti-harakati bilan birga, tilning o‘ziga xos xususiyatlaridan ham foydalaniladi. Masalni ifodali o‘qishga tayyorlanishda uning syujetini bilish bilan birga, muallif tilini yaxshi tushunish zarur. 4-sinf “O‘qish kitobi” da berilgan *“Baqa bilan Taqa”* (Aziz Abdurazzoq) masalida baqa timsoli orqali yozuvchi o‘ziga mos bo‘lmagan, o‘ziga to‘g‘ri kelmaydigan narsalarni orzu qilish va bu orzuni amalga oshirishda boshqalarning maslahati, nasihatiga quloq solmay, o‘z aytganidan qaytmaydigan, o‘jar kishilarni tanqid ostiga oladi. Baqa otlar kabi taqa bilan tovush chiqarib yurishni, yurganda yerni jaranglatib, odamlarga bu dunyoda o‘zining borligini bildirib yashashni istaydi. U



taqachining “*Taqani o’ylama, uni otga chiqargan, senga taqa qoqsam, sakrashdan mahrum bo’lasan ... Sen taqa bilan yo’rg’alay olmaysan. Yo’rg’alashni ham otga chiqargan*”, “*Sen borligingni bildirib yurmoqchi bo’lsang, sayrab yuraver*” deyishlariga quloq solmaydi. Bu o’jarlik uning boshiga kulfat keltiradi: suv tagiga cho’kib ketadi. Yonidagi baqalar bo’lmaganda halok bo’lishi ham tayin edi. Kech bo’lsa ham baqa xatosini anglab yetadi, taqachi oldida xijolat chekadi. Bu holatlar o’quvchini o’z hayotiga, xatti-harakatiga bir nazar tashlashga undaydi. Ular o’z tengqurlari kabi yashash kerakligini anglaydilar.

This article describes the image of imaginary diseases in the stories of Edgar Allan Poe and the reasons for writing about diseases. The allegory and symbolism by depicting the Red Death.¹

The article is devoted to the analysis of the *The Magic Hat* book, written by popular Uzbek writer Khudoyberdi Tukhtaboyev, from the position of classification elements introduced by famous Russian philosopher, literary critic and scholar Mikhail Mikhailovich Bakhtin.²

The depiction of natural landscapes given in works of art is one of the factors that demonstrate the creative artistic skill.³

В современной методике так же, как и много лет назад, актуальной и нерешенной до сих пор остается проблема поиска и выбора наиболее эффективных и рациональных методов преподавания иностранных языков, соответствующих современным условиям обучения и отвечающих требованиям стандартов современного образования.⁴

The article describes in detail the basics of translation theory, the object of research, and the methods of analysis of translation theory.⁵

¹ Akhmedovna, B. M., & Shakhnoza, B. (2022). The Image of Disease in Edgar Allan Poe's "The Masque of the Red Death". *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, 2(1), 19-22.

² Kadirova, N. A. (2020). ANALYSIS OF TRANSFORMATION MOTIFS IN THE MAGIC HAT BOOK BY KHUDOYBERDI TUKHTABOYEV, THROUGH THE PRISM OF MIKHAIL BAKHTIN'S THEORIES. *Theoretical & Applied Science*, (4), 405-408.

³ Kabilova, F., & Tokhirovna, T. K. English Translation of Abdullah Qadiri's Novel "Days Gone by" and Its Reflection Skills. *International Journal on Integrated Education*, 3(10), 304-306.

⁴ Абдуллаева, Л. С., Самадова, С. А., & Махмурова, М. (2014). Современные методы преподавания иностранных языков. Коммуникативный метод. *Наука. Мысль: электронный периодический журнал*, (6), 73-76.

⁵ Gafurovna, R. Z. (2021). Translation Theory: Object of Research and Methods of Analysis. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 24(2), 35-40.



The aim of the present study was to determine whether an association exists between the duration of menopause and the age of menopause onset, and the differences in bone mineral density (BMD) in postmenopausal women. ⁶

This lesson plan format moves from teachers to centered student. In order to keep this standard lesson plan format from becoming monotonous, it is seminal to memorize that there are a number of variations that can be applied within the various segments of the lesson plan format. ⁷

This article deals with the analysis of pastiche in literature, particularly in “The Lightning Thief” by American author Rick Riordan. The research identifies pastiche as a term, which is applied to a literary work that is a broad mixture of things-such as themes, concepts, and characters-imitated from different literary works. ⁸

This article is devoted to the study of Somerset Maugham’s short story “The Book Bag”. It mainly focuses on the analysis of moral and immoral issues, emphasizing to the matter of incest and its fatal outcomes. ⁹

The relevance of speech and culture in the present day is considered important in linguistics and its areas of study are becoming more and more comprehensive day by day. ¹⁰

В этой статье дается краткий обзор антропонимов, их функций статуса, который они получают от этих, и их специфики. ¹¹

⁶ Najmutdinova, D. K., Nurmukhamedova, L. S., Alieva, D. A., Maksudova, D. S., & Nosirova, Z. A. (2016). Study of the effects of the age at menopause and duration of menopause on bone mineral density in postmenopausal women in Uzbekistan. *International Journal of Biomedicine*, 6(1), 38-40.

⁷ Nodirovna, N. N., & Temirovna, P. M. (2022). Principles of designing lesson plans for teaching ESL or EFL. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 5, 10-12.

⁸ Khabibullaeva, R. M. (2020). ANALYSIS OF PASTICHE IN THE NOVEL “THE LIGHTNING THIEF” BY RICK RIORDAN. *Theoretical & Applied Science*, (5), 958-961.

⁹ Куницька, І. (2014). Роман-біографія як жанровий різновид модерністського роману (С. Моем Місяць і мідяки). *Сучасні літературознавчі студії*, (11), 342-348.

¹⁰ NARZIYEVA, I. Z. (2021, March). COMPARATIVE STUDY OF THE CULTURAL AND NATIONAL CHARACTERISTICS OF MODERN UNITS OF ORAL SPEECH (based on Uzbek and English language materials). In *E-Conference Globe* (pp. 285-289).

¹¹ Орипова, К. (2022). ОНОМАСТИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА НАЦИОНАЛЬНОЙ ИНДИВИДУАЛЬНОСТИ ВО ФРАНЦУЗСКОМ ЯЗЫКЕ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 8(8). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4712

The article is about the development of the Soviet era of Uzbek educational dictionary. The educational dictionaries created during this period served mainly to teach Russian in national schools.¹²

This article deals with the description of synonyms in the explanatory dictionaries of the Uzbek language published in different periods, the systematic description of the similarities and differences between the explanations of synonyms in the publications.¹³

The Constitution of the Republic of Uzbekistan defines the right of citizens to vote and to be elected, the foundations of the national electoral system, the basis of which are the Universal Declaration of Human Rights, the International Covenant on Civil and Political Rights and ratification by Uzbekistan, constituting the principles of democracy, including independence, legitimacy, transparency and fairness, enshrined and recognized in other international legal instruments.¹⁴

This article discusses an attitude to women in the past and the interpretation of the image of women in the works of some writers.¹⁵

Masallar yosh avlodni o'sib ulg'ayishida axloqiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib ularning o'qishlari va kelajakda yaxshi ,yetuk inson bo'lib gavdalanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga ularning kitobxonlik doirasini ham kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Akhmedovna, B. M., & Shakhnoza, B. (2022). The Image of Disease in Edgar Allan Poe's "The Masque of the Red Death". *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, 2(1), 19-22.

¹² Bakhridinova, B. M. (2020). HISTORY OF CREATING FIRST BILINGUAL AND REGULATORY EDUCATIONAL DICTIONARIES IN UZBEK LANGUAGE. *Scientific reports of Bukhara State University*, 4(1), 147-181.

¹³ Rustamovna, M. G. (2020). Presenting synonyms in the explanatory dictionaries of the Uzbek language. *Middle European Scientific Bulletin*, 6, 117-120.

¹⁴ Tolibjonovich, M. T., & Toxirjonovich, S. D. (2021). The Institutional Mechanisms Of The Development Of The Electoral System In Uzbekistan. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(8), 4378-4384.

¹⁵ Muradovich, R. M. (2021). The Image of a Woman in The Work of Uzbek Writers. *Eurasian Research Bulletin*, 3, 7-12.



2. Kadirova, N. A. (2020). ANALYSIS OF TRANSFORMATION MOTIFS IN THE MAGIC HAT BOOK BY KHUDOYBERDI TUKHTABOYEV, THROUGH THE PRISM OF MIKHAIL BAKHTINS THEORIES. *Theoretical & Applied Science*, (4), 405-408.
3. Kabilova, F., & Tokhirovna, T. K. English Translation of Abdullah Qadiri's Novel "Days Gone by" and Its Reflection Skills. *International Journal on Integrated Education*, 3(10), 304-306.
4. Абдуллаева, Л. С., Самадова, С. А., & Махмурова, М. (2014). Современные методы преподавания иностранных языков. Коммуникативный метод. *Наука. Мысль: электронный периодический журнал*, (6), 73-76.
5. Gafurovna, R. Z. (2021). Translation Theory: Object of Research and Methods of Analysis. *International Journal of Progressive Sciences and Technologies*, 24(2), 35-40.
6. Najmutdinova, D. K., Nurmukhamedova, L. S., Alieva, D. A., Maksudova, D. S., & Nosirova, Z. A. (2016). Study of the effects of the age at menopause and duration of menopause on bone mineral density in postmenopausal women in Uzbekistan. *International Journal of Biomedicine*, 6(1), 38-40.
7. Nodirovna, N. N., & Temirovna, P. M. (2022). Principles of designing lesson plans for teaching ESL or EFL. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 5, 10-12.
8. Khabibullaeva, R. M. (2020). ANALYSIS OF PASTICHE IN THE NOVEL "THE LIGHTNING THIEF" BY RICK RIORDAN. *Theoretical & Applied Science*, (5), 958-961.
9. Куницька, І. (2014). Роман-біографія як жанровий різновид модерністського роману (С. Моем Місяць і мідяки"). *Сучасні літературознавчі студії*, (11), 342-348.
10. NARZIYEVA, I. Z. (2021, March). COMPARATIVE STUDY OF THE CULTURAL AND NATIONAL CHARACTERISTICS OF MODERN UNITS OF ORAL SPEECH (based on Uzbek and English language materials). In *E-Conference Globe* (pp. 285-289).
11. Орипова, К. (2022). ОНОМАСТИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА НАЦИОНАЛЬНОЙ ИНДИВИДУАЛЬНОСТИ ВО ФРАНЦУЗСКОМ ЯЗЫКЕ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 8(8).
извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4712



12. Bakhriddinova, B. M. (2020). HISTORY OF CREATING FIRST BILINGUAL AND REGULATORY EDUCATIONAL DICTIONARIES IN UZBEK LANGUAGE. *Scientific reports of Bukhara State University*, 4(1), 147-181.
13. Rustamovna, M. G. (2020). Presenting synonyms in the explanatory dictionaries of the Uzbek language. *Middle European Scientific Bulletin*, 6, 117-120.
14. Tolibjonovich, M. T., & Toxirjonovich, S. D. (2021). The Institutional Mechanisms Of The Development Of The Electoral System In Uzbekistan. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(8), 4378-4384.
15. Muradovich, R. M. (2021). The Image of a Woman in The Work of Uzbek Writers. *Eurasian Research Bulletin*, 3, 7-12.